

# COLLECTION

Innovation, integration and modern  
problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and  
practice

www.d-pressa.com

31  
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE  
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and practice collection of materials of the  
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

**Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice** – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 1054 pp.

**Editors in charge:** Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

## RUS TILINING MDH MAMLAKATLARI O'RTASIDAGI SAVDO ALOQALARIDAGI ROLI VA ISTIQBOLLARI

**Rahmonov Aziz**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

**Ernazarova Marxabo**

*Ilmiy rahbar, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax  
filiali o'qituvchisi*

[rahmonovaziz1001@gmail.com](mailto:rahmonovaziz1001@gmail.com)

---

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro bozorda rus tilining o'rnini va uning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tilning iqtisodiy munosabatlardagi roli nazariy jihatdan yoritilib, u kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Shuningdek, maqolada rus tilining MDH mamlakatlari doirasida millatlararo muloqot tili sifatidagi o'rnini, savdo-iqtisodiy aloqalar, mehnat migratsiyasi va xizmatlar bozoridagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** rus tili, xalqaro bozor, iqtisodiy ahamiyat, mehnat migratsiyasi, O'zbekiston, MDH mamlakatlari, tashqi savdo, xizmatlar bozori, til siyosati, global integratsiya.

### KIRISH

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda til omili xalqaro iqtisodiy munosabatlar, savdo aloqalari va mehnat migratsiyasida muhim strategik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish nafaqat iqtisodiy salohiyat, balki samarali kommunikatsiya vositalariga ham bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, rus tili postsovet hududida va ayniqsa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari o'rtasida millatlararo muloqot tili sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Bugungi kunda rus tili nafaqat madaniy va tarixiy meros elementi, balki iqtisodiy integratsiya vositasi sifatida ham faol qo'llanilmoqda. Xususan, MDH davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarda rus tilining umumiy aloqa tili sifatida qo'llanishi biznes jarayonlarini soddalashtiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, migratsiya, ta'lim va turizm sohalarida rus tilining roli tobora ortib bormoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda rus tilini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslar ham kuchaymoqda. Jumladan, MDH doirasida "Rus tili bo'yicha xalqaro tashkilotni ta'sis etish to'g'risidagi shartnoma"ning qabul qilinishi va O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi ushbu tilning davlatlararo muloqotdagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur tashkilot rus tilida ta'lim sifatini oshirish, ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash hamda davlatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida til omili xalqaro savdo, investitsiya va mehnat bozori samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy iqtisodiy makonlarda umumiy kommunikatsiya tilining mavjudligi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni sezilarli darajada osonlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, rus tilining xalqaro bozordagi o'rni va ahamiyatini o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

MDH mamlakatlari doirasida rus tili tarixan shakllangan millatlararo muloqot vositasi sifatida iqtisodiy aloqalar, savdo operatsiyalari va xizmatlar bozorida keng qo'llanilmoqda. Xususan, O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri bo'lgan Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar hajmining yuqoriligi ushbu tilning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo, migratsiya va ta'lim sohalaridagi hamkorlikning kengayishi rus tiliga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda .

Bundan tashqari, so'nggi yillarda rus tilini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlatlararo tashabbuslarning kuchayishi ham mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Xususan, MDH doirasida rus tilini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashkilotni tuzish va ushbu yo'nalishda qabul qilinayotgan qarorlar rus tilining nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatidagi ahamiyatini mustahkamlamoqda .

Shu bilan birga, zamonaviy global iqtisodiyotda til raqobati kuchayib borayotgan bo'lib, ingliz tili yetakchi global til sifatida ustunlik qilayotgan bir vaqtda, rus tilining mintaqaviy iqtisodiy hududlardagi barqaror o'rni va uning raqobatbardoshligini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki tilni bilish nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki iqtisodiy imkoniyatlar, ish bilan ta'minlanish va biznes samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Til iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim institutsional omil sifatida qaraladi, chunki u nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, kelishuvlar tuzish va bozor operatsiyalarini amalga oshirishning asosiy instrumentidir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda til "ijtimoiy kapital"ning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, ya'ni tilni bilish shaxs va tashkilotlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va bozor samaradorligini oshiradi.

Xalqaro bozorda tilning o'rni, avvalo, uning qamrovi va funksional imkoniyatlari bilan belgilanadi. Global miqyosda ingliz tili yetakchi mavqega ega bo'lsa-da, mintaqaviy iqtisodiy makonlarda boshqa tillar, jumladan rus tili ham muhim kommunikativ vosita sifatida faoliyat yuritadi. Rus tili, ayniqsa, MDH mamlakatlari hududida tarixiy, siyosiy va iqtisodiy omillar natijasida shakllangan umumiy aloqa tili sifatida o'z mavqeini saqlab qolgan. U millatlararo muloqot vositasi sifatida savdo, diplomatiya, ta'lim va xizmatlar sohasida keng qo'llaniladi .

Nazariy jihatdan tilning iqtisodiy ahamiyati bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, til axborot asimmetriyasini kamaytiradi. Ya'ni, tomonlar bir xil tilni bilgan taqdirda, bitim tuzish jarayonida noto'g'ri tushunish ehtimoli kamayadi va qaror qabul qilish tezlashadi. Ikkinchidan, til tranzaksiya xarajatlarini qisqartiradi. Tarjima, vositachilik va qo'shimcha kommunikatsiya xarajatlarining

kamayishi biznes samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, til bozor integratsiyasini ta'minlaydi, ya'ni umumiy til mavjudligi turli mamlakatlar iqtisodiyotlarini yagona iqtisodiy makonga yaqinlashtiradi.

Rus tilining xalqaro bozordagi nazariy ahamiyatini tushuntirishda uning **“lingua franca”** sifatidagi roli alohida e'tiborga loyiqdir. Lingua franca — turli millat vakillari o'rtasida umumiy aloqa vositasi sifatida qo'llaniladigan til bo'lib, rus tili aynan MDH hududida ushbu funksiyani bajaradi. Bu esa savdo aloqalarining kengayishi, investitsiya oqimlarining oshishi va mehnat migratsiyasining faollashuviga xizmat qiladi.

Shuningdek, rus tilining iqtisodiy qiymati inson kapitali nazariyasi orqali ham izohlanadi. Tilni bilish shaxsning bilim va ko'nikmalarini kengaytirib, uning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Ayniqsa, rus tilini bilish postsovet hududida ish topish imkoniyatlarini kengaytiradi va daromad darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat mehnat migratsiyasi misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, rus tili madaniy va institutsional omil sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Tarixan shakllangan yagona axborot makoni, ilmiy va texnik adabiyotlar bazasi, hamda ta'lim tizimidagi qo'llanilishi uning iqtisodiy faoliyatdagi rolini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, davlatlararo darajada qabul qilinayotgan qarorlar va tashabbuslar ham rus tilining institutsional maqomini qo'llab-quvvatlamoda.

O'zbekiston iqtisodiyoti va mehnat bozorida rus tilining ahamiyati bir qator statistik ko'rsatkichlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik savdo-iqtisodiy aloqalar, migratsiya va xizmatlar bozori orqali kuchayib bormoqda. Xususan, O'zbekiston mustaqillikdan keyingi 33 yil ichida Rossiyaning asosiy savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri bo'lib qolgan va tovar ayirboshlash hajmida birinchi o'rinlarni egallaydi, bu esa rus tilining til sifatida iqtisodiy maydondagi ahamiyatini oshiradi .

Mehnat migratsiyasi bu jarayonda eng muhim statistik ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 2022-yilda Rossiyaga ishga borgan mehnat migrantlari tarkibida o'zbeklar eng katta ulushni egallagan. Xususan, jami 3,47 million xorijiy mehnat migrantlari orasida o'zbek fuqarolarining ulushi 42 %ga yaqin bo'lib, bu taxminan 1,45 million o'zbek mehnatkashiga to'g'ri keladi . Bu statistik raqam rus tilini bilishning amaliy zaruratini ko'rsatadi, chunki Rossiya mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishlash uchun til ko'nikmalari muhim omil bo'lib qolmoqda (masalan, haydovchi yoki sog'liqni saqlash xodimi sifatida ishlash uchun rus tili bo'yicha test topshirish talab etilishi mumkinligi haqida qonun loyihalari muhokama qilinmoqda) .

Shuningdek, statistik dinamikaga qaraganda, O'zbekiston fuqarolarining Rossiyaga mehnat migratsiyasi so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. 2016-yildan boshlab o'zbekistonlik migrantlar soni to'rt baravar kamaygan bo'lsa-da, ularning soni hali ham millionlab kishilarni tashkil etadi — hozirgi kunda Rossiyada o'zbek mehnat migrantlarining soni taxminan 1 millionga tengligi qayd etilgan . Shunga qaramay, ularning iqtisodiy integratsiyasida rus tilini bilish darajasi bevosita ish topish imkoniyatlariga ta'sir qiladi.

Ta'lim sohasida ham rus tilining statistik ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, O'zbekistonda rus tilida ta'lim beradigan minglab maktablar faoliyat yuritmoqda. Lekin amaliy statistik tadqiqotlar rus tiliga ajratiladigan dars soatlari yetarli emasligini ko'rsatmoqda, bu esa tilning to'la samarali o'zlashtirilishini qiyinlashtiradi va uning iqtisodiy foydasini pasaytirishi mumkin .

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar O'zbekiston kontekstida rus tilining iqtisodiy va mehnat migratsiyasidagi rolini sezilarli darajada ko'rsatadi. Mehnat migratsiyasiga oid raqamlar til bilishning zaruratini iqtisodiy jihatdan asoslaydi, savdo-iqtisodiy sheriklik esa tilni mintaqaviy kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida mustahkamlaydi. Ta'limdagi statistik ko'rsatkichlar esa tilning kelajakda qo'shimcha qo'llab-quvvatlashni talab etayotgan soha ekanligini ko'rsatadi.

**1-jadval**

<b>№</b>	<b>Soha</b>	<b>Asosiy ko'rsatkich</b>	<b>Statistik holat (taxminiy/umumiy )</b>	<b>Rus tilining roli</b>	<b>Iqtisodiy ta'siri</b>
1	Tashqi savdo	Rossiya bilan savdo ulushi	Eng yirik savdo hamkorlardan biri	Muzokara va shartnomalarda asosiy til	Savdo hajmini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi
2	Mehnat migratsiyasi	O'zbek migrantlari soni	~1-1.5 mln kishi	Ish topish va moslashuv uchun zarur	Daromad oshishi, pul o'tkazmalari ko'payishi
3	Ta'lim	Rus tilidagi maktablar soni	Minglab maktablar mavjud	Professional bilim olish vositasi	Kadrlar sifatini oshiradi
4	Xizmatlar bozori	Savdo va servis sektori	Katta shaharlarda keng qo'llaniladi	Mijozlar bilan aloqa tili	Savdo samaradorligini oshiradi
5	Biznes va investitsiya	Qo'shma korxonalar	Rossiya kapitali ishtirokida ko'p loyihalar	Biznes kommunikatsiya tili	Investitsiya jalb qilishni osonlashtiradi
6	Turizm	Rossiyalik turistlar ulushi	Yuqori ulushga ega	Turistlar bilan muloqot tili	Turizm daromadini oshiradi
7	Axborot va IT	Rus tilidagi kontent	Internetda katta segment mavjud	Axborot olish va ishlash tili	Bilim va imkoniyatlarni kengaytiradi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, rus tili O'zbekiston iqtisodiyotining deyarli barcha asosiy segmentlarida — savdo, migratsiya, ta'lim va xizmatlar sohasida faol qo'llanilmoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi va tashqi savdo yo'nalishlarida uning roli eng yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu esa rus tilini nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki real iqtisodiy foyda keltiruvchi instrument sifatida baholash imkonini beradi.

**XULOSA**

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, rus tili hozirgi kunda xalqaro bozorda, ayniqsa MDH mamlakatlari doirasida muhim

kommunikativ va iqtisodiy vosita sifatida o‘z mavqeini saqlab qolmoqda. Til nafaqat muloqot vositasi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiruvchi va bozor integratsiyasini ta‘minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rus tilining ahamiyati, avvalo, tashqi savdo aloqalari, mehnat migratsiyasi va xizmatlar bozori orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Rossiya bilan iqtisodiy hamkorlikning yuqori darajada ekanligi, millionlab mehnat migrantlarining aynan rus tilida faoliyat yuritishi hamda biznes va xizmatlar sektorida ushbu tilning keng qo‘llanilishi uning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Bu esa rus tilini bilish bevosita iqtisodiy imkoniyatlar, daromad darajasi va bandlik bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Kelgusida rus tilining xalqaro bozordagi o‘rnini saqlab qolish va yanada mustahkamlash uchun uni ta‘lim tizimida rivojlantirish, professional yo‘nalishlarda chuqurlashtirish hamda iqtisodiy faoliyat bilan uzviy bog‘lash zarur. Shu bilan birga, ko‘p tillilik siyosatini qo‘llab-quvvatlash orqali rus tilidan samarali foydalanish bilan bir qatorda global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati ham kengayadi. Umuman olganda, rus tili O‘zbekiston uchun nafaqat tarixiy va madaniy meros elementi, balki real iqtisodiy foyda keltiruvchi strategik resurs sifatida baholanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Primova V. *Rus tilining Rossiya va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga ta‘siri* // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024.
2. Qurbonova M.T. *Millatlararo muloqot tili sifatida rus tilining o‘tmishi, buguni va kelajagi* // “Iqtisodiyot va sotsium” jurnali. – 2025.
3. Keldiyorova G.B. *Rus tilining tarixiy rivojlanishi va uning global kontekstdagi ahamiyati* // Pedagogik tadqiqotlar. – 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining \**“Rus tili bo‘yicha xalqaro tashkilotni ta‘sis etish to‘g‘risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqida”*\*gi qarori, 31-oktyabr 2024-yil.
5. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) materiallari: rus tilini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tashabbuslar.
6. Nusratullayev B.B. *O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida eksportning o‘rni* // University Research Base. – 2024.
7. Global til va iqtisodiy integratsiya masalalari bo‘yicha tahliliy maqolalar // fledu.uz.
8. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar to‘plami.